

**PARTISIPATOR BYUDJETLASHTIRISH FUQAROLARNING BYUDJET
JARAYONIDAGI ISHTIROKINING SAMARALI MEXANIZMI SIFATIDA**

Iriskulov Temur Xayrulla o'g'li

Toshkent Moiya Instituti

Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti talabasi

“Partisipator” so‘zi - ingliz tilida “participate” - “tashabbusli yoki faol ishtirok etish” degan ma’noni anglatadi. Partisipator byudjetlashtirish - bu fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag’larining bir qismini taqsimlash va bu mablag’larni sarflash yo‘nalishlarini tanlash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyotidir.

Davlat byudjeti iqtisodiyotda makroiqtisodiy boshqaruvning muhim vositasi bo‘lib, uning samaradorligi hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Davlat byudjeti aholining hayotiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy siyosat va ustuvorliklarni amalga oshirish uchun vositadir. Byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokiga assoslangan byudjetlashtirishning zamonaviy usullaridan biri - “Partisipator byudjetlashtirish” amaliyotidir va undan byudjet munosabatlarini rivojlanishining zamonaviy bosqichida ko‘pgina davlatlar foydalanmoqda.

Ushbu jarayon uchta asosiy maqsadga ega:

Shaffoflik: fuqarolarga joriy byudjet to‘g’risida va byudjetni rejalashtirishning aniqlangan elementlari to‘g’risida ma’lumot beriladi. Jarayonni shaffof qilish mablag’larni samarasiz yoki noto‘g’ri ishlatalishini oldini olishga yordam beradi.

Jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sohada fuqarolarning ishtiroki yoki birgalikda qaror qabul qilish: mahalliy ma’muriyat va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi hamda fuqarolar hududda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g’risida ko‘proq xabardor bo‘lishadi.

Davlat xarajatlari fuqarolarning manfaatlariga ko‘proq mos keladi: jamoat ishtirokchilari uchun mahalliy ma’muriyat davlat mablag’larini amaldagi ehtiyojlarga muvofiq qanday sarflash to‘g’risida qaror qabul qilish va adolatli taqsimlash uchun byudjet ustuvorliklarini qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Xalqaro tajribadan ma’lumki, partisipator byudjetlashtirish 1989 yilda birinchi marta Braziliyaning Porto-Alegri shahrida qo’llanilgan. Ma’muriyat fuqarolarga shahar byudjetining bir qismini qanday taqsimlash to‘g’risida qaror qabul qilish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda, o’ttiz yillik muvaffaqiyatli amaliyotdan so‘ng, Porto-Alegri fuqarolari shahar byudjetining 20 foizini taqsimlaydilar.

Mazkur byudjet amaliyotini G’arbiy va Sharqiy Yevropadagi 20 dan ortiq davlatlar, Lotin Amerikasi, AQSh, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa ko‘plab davlatlar muvaffaqiyatli qo’llamoqda. Masalan, Hindistonning Kerala shtatida partisipator byudjetlashtirish amaliyoti 1996 yilda to‘liq amalga oshirilgan bo‘lib, fuqarolar 24 yildan ko‘proq vaqtidan beri byudjet jarayonida ishtirok etib kelmoqda. Uni ishga tushirishda

barcha bosqichlardi maslahat yordami 373 ta davlat instruktorlari tomonidan olib borilgan.

Ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijobiy hissa qo'shmoqda, chunki fuqarolarning ishtiroki va ishtirokining ortishi bilan bir qatorda, boshlang'ich ta'lif, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ichimlik suvi bilan ta'minlash, sanitariya va boshqa ijtimoiy xizmatlarning sifati mamlakatda o'sib bormoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu amaliyotni mahalliy hukumatlar tomonidan amalga oshirilishida asos sifatida aniq prinsiplar, mexanizmlar va tartiblar qo'llaniladi. Ularni qanchalik puxta va mukammal ishlab chiqilganligi jarayonni muvafaqqiyatlama amalga oshirilishini ta'minlaydi. Oxirgi yillarda qator mamlakatlarda uning rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aholi qamrovini oshirish uchun internet-texnologiyalardan, ma'lum bir maqsadli guruhlar (yoshlar, migrantlar)ni hisobga olgan partisipator byudjetlashtirish mexanizmidan foydalanish, byudjet ochiqligi siyosatiga partisipator byudjetlashtirishning integratsiyasi, partisipator byudjetlashtirish mexanizmiga asoslangan qator innovatsion amaliyotlarning paydo bo'lishida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, fuqarolar davlat byudjetining ma'lum qismini taqsimlashda bevosita qatnashadigan jarayon sifatida partisipator byudjetlashtirish hukumat bilan fuqarolar o'rtaqidagi munosabatlarning yangicha zamonaviy yondashuvi, byudjet jarayoniga jamoatchilikni jalg etishning ta'sirchan mexanizmi desak bo'ladi. Ushbu amaliyot davlat resurslarini yanada adolatli taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Fikrimizcha, o'rta muddatli istiqbolda byudjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash borasida:

Birinchidan, byudjetni tayyorlash jarayoniga hamda o'rta muddatli byudjetning ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilishga jamoatchilik ishtirokini ta'minlashning ochiq mexanizmlarini keng qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish;

Ikkinchidan, olib borilayotgan byudjet siyosatini aholining har xil qatlamariga ta'sirini o'rganish hamda byudjet siyosatida qabul qilinayotgan qarorolarni aholi tomonidan yaxshiroq tushunilishi uchun ularning natijalarini e'lon qilish.

Uchinchidan, "Tashabbusli byudjet" ni xalqaro darajadagi partisipator byudjetlashtirish amaliyoti kabi byudjetning ochiqligi va shaffofligi bilan uyg'unlikda bosqichma-bosqich rivojlantirish, uni boshqarishni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish;

To'rtinchidan, fuqarolar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali byudjet jarayonida ular ishtirokini faollashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.